



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	



O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI

Zoxidov Firuz Faxritdinovich

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti,
Turizm kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatları tadqiq etilgan. Tadqiqotda statistik, qiyosiy, tizimli va kontent-tahlil usullaridan foydalanilib, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ekskursiya xizmatlarini tashkil etishning amaldagi holati baholangan. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan turoperatorlar va turagentliklar tomonidan taklif etilayotgan ichki turistik mahsulotlar tahlil qilinib, ularning inklyuzivlik darajasi, mavjud muammolari va rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan. Tadqiqot natijasida ekskursiya obyektlari va turizm infratuzilmasida universal dizayn tamoyillarini joriy etish, ekskursiya xizmatlarini raqamlashtirish, assistiv texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish hamda inklyuziv turizm bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun sifatli va xavfsiz ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish, ichki turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda O‘zbekistonda inklyuziv turizmni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv turizm, qulay muhit, ekskursiya xizmatlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, to‘siqsiz turizm, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun turistik mahsulot.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of developing excursion services for persons with disabilities in the Republic of Uzbekistan. The study employs statistical, comparative, systematic, and content analysis methods to assess the current state of organizing excursion services for persons with disabilities. The domestic tourism products offered by tour operators and travel agencies in Uzbekistan for persons with disabilities are analyzed to determine their level of inclusiveness, existing challenges, and development prospects. Based on the research findings, scientifically grounded recommendations have been developed for implementing the principles of universal design at excursion sites and within tourism infrastructure, digitalizing excursion services, expanding the use of assistive technologies, and training qualified specialists in the field of inclusive tourism. The findings of the study contribute to the development of high-quality and safe excursion services for persons with disabilities, enhance the competitiveness of domestic tourism products, and promote the sustainable development of inclusive tourism in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: inclusive tourism, accessible environment, excursion services, persons with disabilities, barrier-free tourism, tourism products for persons with disabilities.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты развития экскурсионных услуг для лиц с инвалидностью в Республике Узбекистан. В ходе исследования с использованием статистического, сравнительного, системного и контент-анализа проведена оценка современного состояния организации экскурсионных услуг для лиц с инвалидностью. Проанализированы внутренние туристские продукты, предлагаемые тuroperatorами и турагентствами Узбекистана для лиц с инвалидностью, определены уровень их инклюзивности, существующие проблемы и перспективы развития. По результатам исследования разработаны научно обоснованные рекомендации по внедрению принципов универсального дизайна на экскурсионных объектах и в туристской инфраструктуре, цифровизации экскурсионных услуг, расширению использования ассистивных технологий, а также подготовке квалифицированных кадров в сфере инклюзивного туризма. Полученные результаты могут способствовать развитию качественных и безопасных экскурсионных услуг для лиц с инвалидностью, повышению конкурентоспособности внутренних туристских продуктов и устойчивому развитию инклюзивного туризма в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: инклюзивный туризм, доступная среда, экскурсионные услуги, лица с инвалидностью, безбарьерный туризм, туристские продукты для лиц с инвалидностью.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv va to'siqsiz turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarning turistik xizmatlardan teng foydalanish huquqlarini ta'minlash, turizm infratuzilmasini moslashtirish hamda ichki turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yildan boshlab nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turistik obyektlarni moslashtirish, qulay muhit yaratish hamda inklyuziv turizm xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

2025-yilning birinchi yarmida "Inclusive Barrier-Free Tourism" va "Inclusive Journey" dasturlari doirasida 8 337 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaro uchun sayohatlar tashkil etildi. Mazkur ko'rsatkich mamlakatda inklyuziv turizmga bo'lgan e'tibor ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ekskursiya xizmatlari tizimida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun infratuzilmaviy, tashkiliy va axborot-kommunikatsiya bilan bog'liq ayrim masalalar mavjud. Jumladan, panduslar, taktil yo'laklar, audiogidlar, surdotarjima xizmatlari, taktil maketlar va maxsus mobil ilovalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, inklyuziv turizm bo'yicha malakali gidlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zarurati ushbu yo'nalishning dolzarb jihatlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv turizm nazariyasi va amaliyoti bo'yicha BMT, UNWTO, WHO, ENAT hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu ilmiy ishlarda universal dizayn, to'siqsiz muhit, ekskursiya xizmatlarini moslashtirish va assistiv texnologiyalarni joriy etish masalalari keng yoritilgan.

Xorijiy tajribada Italiya, Germaniya va Yaponiyada inklyuziv ekskursiya xizmatlarini tashkil etishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular tarixiy obyektlarni taktil modellar, Brayl yozuvi, audiogidlar, VR va AR texnologiyalari hamda imo-ishora tilidagi ekskursiyalar bilan jihozlashga asoslangan.

Xususan, S. Darcy nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turizm iqtisodiyoti va universal dizayn bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Olimning eng muhim ilmiy natijalaridan biri "Accessible Tourism" — inklyuziv yoki qulay turizm konsepsiyasini ilmiy asoslashdir. Accessible tourism — bu nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, vaqtinchalik harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar va boshqa alohida ehtiyojga ega turistlarning turizm xizmatlaridan mustaqil, xavfsiz va teng foydalanishini ta'minlaydigan turizm tizimidir.

Shuningdek, S. Darcy turizm iqtisodiyoti bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida inklyuziv turizmni nafaqat ijtimoiy loyiha, balki iqtisodiy resurs sifatida ham talqin etib, uni "tourism business opportunity" sifatida baholaydi.

Bret Smit inklyuziv turizmning ijtimoiy modeli hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning turizm tajribalarini o'rgangan. Shuningdek, u aqlli turizm (Smart Tourism), raqamli texnologiyalar va inklyuziv turizm integratsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham inklyuziv turizmni rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan bo'lsa-da, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ekskursiya xizmatlarini tashkil etish metodologiyasi va turistik mahsulotlarni baholash masalalari hali yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, kontent-tahlil, kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tashkil etilayotgan ekskursiya xizmatlari hamda turoperatorlar va turagentliklarning ichki turistik mahsulotlari tanlandi. Shuningdek, xalqaro tajriba ham o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda inklyuziv turizm izchil rivojlanib bormoqda. To'siqsiz muhit dasturlarini amalga oshirish, madaniy meros obyektlarini moslashtirish, jumladan, panduslar o'rnatish hamda "To'siqsiz turizm" kabi davlat tashabbuslari natijasida sayohat xizmatlari yanada qulaylashmoqda. Har yili imkoniyati cheklangan insonlar uchun Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarga bepul tanishuv sayohatlari tashkil etilmoqda.

Mazkur yo'nalishning rivojlanishi bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Qurilish qoidalari va shaharsozlik standartlari yangi inshootlarni panduslar, liftlar va taktil qoplamalar bilan jihozlashni nazarda tutadi. Shaharlarda



qulay muhit yaratish jarayoni muntazam nazorat qilinib, bu borada qurilish tashkilotlari faoliyati belgilangan talablar asosida baholanmoqda. Yirik turistik markazlardagi zamonaviy mehmonxonalarda ixtisoslashtirilgan xonalar tashkil etilmoqda. Xususan, Samarqanddagi ayrim mehmonxonalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun tutqichlar, keng eshiklar va chaqiruv tugmalari bilan jihozlangan xonalar mavjud. Registon maydoni kabi muhim tarixiy obyektlar bosqichma-bosqich nogironlar aravachasida harakatlanuvchi sayyohlar uchun moslashtirilmoqda. Shuningdek, interaktiv platformalar va onlayn qo'llanmalar ishga tushirilmoqda, bu esa nogironligi bo'lgan sayyohlarga obyektlarning qulayligi, transport va turar joy imkoniyatlari haqida oldindan ma'lumot olish imkonini beradi.

O'zbekiston to'siqsiz muhit yaratishga qaratilgan "To'siqsiz turizm" dasturini faol rivojlantirmoqda. Hukumat va xususiy turoperatorlar barcha toifadagi sayohatchilar uchun tarixiy va madaniy yo'nalishlarni qulay qilish maqsadida infratuzilma, transport va turistik mahsulotlarni moslashtirish choralarini ko'rmoqda.

Asosiy yo'nalishlar va infratuzilmaviy yechimlar doirasida qadimiy shaharlarda, jumladan, Samarqand, Buxoro va Xivada maxsus yo'laklar, panduslar, liftlar va audiogidlar joriy etilmoqda. Masalan, Samarqanddagi Registon maydonida to'siqsiz sayohat loyihalari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, liftli avtobuslar hamda guruh yoki individual transferlar uchun maxsus jihozlangan mikroavtobuslardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Ko'zi ojizlar uchun taktil stendlar, Brayl yozuvidagi ma'lumotlar hamda imo-ishora tilida xizmat ko'rsata oladigan gidlarni tayyorlash amaliyoti ham bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda.

Davlat va ijtimoiy tashabbuslar doirasida "Hamma uchun sayohat" kabi xayriya dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar orqali nogironligi bo'lgan shaxslar va pensionerlar, jumladan, I guruh nogironligi bo'lgan fuqarolar uchun bepul yoki imtiyozli sayohatlar tashkil etiladi. Ayrim hollarda sayohat xarajatlarining bir qismi xayriya jamg'armalari va davlat ko'magida qoplanadi. Shuningdek, mamlakatdagi mashhur balneologik kurortlar va sanatoriylar, jumladan, "Zomin" va "Chortoq" sanatoriylari harakatlanish imkoniyati cheklangan mehmonlar uchun moslashtirilgan xonalar bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekistonda inklyuziv turlar mahalliy va xalqaro turistik agentliklar tomonidan tashkil etilmoqda. Harakatlanish darajasi va individual ehtiyojlardan kelib chiqib, maqbul marshrutni tanlash uchun ijtimoiy turizm platformalari, Uzbekistan.travel portali hamda mahalliy turoperatorlar xizmatlaridan foydalanish mumkin. Moslashtirilgan mehmonxonalar, maxsus transport va individual ekskursiyalarni tanlashda Dostupno Tur kabi mahalliy turoperatorlar bilan bog'lanish maqsadga muvofiq. Keng qamrovli xizmatlar, aviaqatnovlar va viza masalalari bo'yicha esa Talisman Tour kabi turistik platformalar orqali so'rov yuborish imkoniyati mavjud.

O'zbekistonda to'siqsiz turizmni rivojlantirish jarayoni bir qator tizimli masalalar bilan uzviy bog'liq. Ular qatoriga moslashtirilgan infratuzilmani yanada kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ixtisoslashgan yo'nalishlarni milliy turizm tarmog'iga chuqur integratsiya qilish zarurati kiradi.

Asosiy yo'nalishlardan biri infratuzilmaviy moslashuv hisoblanadi. Transport qulayligi nuqtayi nazaridan ayrim poyezdlar, shaharlararo avtobuslar va taksilar tayanch-harakat tizimida nogironligi bo'lgan yo'lovchilar uchun to'liq moslashtirishni talab etadi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlardagi qadimiy me'moriy majmualarni moslashtirish esa alohida yondashuvni talab qiladi. Panduslar, maxsus liftlar, taktil qoplamalar va ovoqli svetoforlarning yetarli darajada rivojlantirilishi sayyohlar harakatlanishining xavfsizligi va qulayligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sertifikatlangan qulay xonalar asosan Toshkentdagi yirik xalqaro mehmonxonalarda mavjud bo'lib, hududiy mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylarida ham to'siqsiz xonalar sonini ko'paytirish dolzarb hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sifati ham inklyuziv turizmning muhim tarkibiy qismidir. Mamlakatda imo-ishora tilini biladigan professional gidlar, shuningdek, nogironligi bo'lgan sayyohlar bilan ishlash madaniyati, muloqot odobi va xavfsiz hamrohlik ko'nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, qaysi mehmonxonalar, muzeylar, restoranlar va turistik obyektlar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va xavfsiz ekanligi haqida tasdiqlangan ma'lumotlarni jamlaydigan yagona platforma yoki kataloglarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy va tartibga soluvchi omillar ham muhim ahamiyatga ega. Xususiyy biznes subyektlari, jumladan, kafelar, kichik mehmonxonalar va transport kompaniyalari uchun binolarni moslashtirish ma'lum investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli, inklyuziv infratuzilmani rivojlantirishda davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish muhimdir. Prezidentning to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirishga oid tashabbuslari mavjud bo'lsa-da, yangi turistik obyektlarni loyihalash va qurishda belgilangan qurilish me'yorlari hamda standartlarining amaliy ijrosini yanada kuchaytirish zarur.

Xalqaro inklyuziv turizm amaliyoti nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhit yaratish, infratuzilmani moslashtirish va maxsus marshrutlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Bu esa dam olish va sayohat qilishda teng imkoniyatlarni ta'minlash hamda ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, Ispaniyada ONCE Foundation faoliyati doirasida turistik obyektlarning qulayligini baholash va sertifikatlash tizimi shakllangan. Plyajlarda ko'rish qobiliyati zaif shaxslar uchun maxsus panduslar, taktil yo'laklar, moslashtirilgan suzish stullari va ovoqli belgilar joriy etilgan. UNWTO tomonidan esa "Barcha uchun



turizm” tamoyillari ilgari surilib, mamlakatlarga sayohat tajribasining barcha bosqichlarida universal dizayn yondashuvini qo'llash tavsiya etiladi.

Yevropa mamlakatlarida transport va infratuzilmani moslashtirish bo'yicha ham samarali tajribalar mavjud. Aeroportlar va aviakompaniyalar nogironlar aravachalari, ovozli va vizual bildirishnomalar, shuningdek, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar orqali nogironligi bo'lgan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadi. Fransiyadagi “Tourisme et Handicap” dasturi sayyohlarga mehmonxona, restoran yoki muzeyning harakatlanish, eshitish, ko'rish yoki aqliy rivojlanish bilan bog'liq ehtiyojlarga qanchalik mos ekanligini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Italiya, xususan, Venetsiya va Rim kabi tarixiy shaharlarda pog'onasiz marshrutlar yaratish, ko'r va ko'rish qobiliyati zaif shaxslar uchun diqqatga sazovor joylarning taktil modellarini joriy etish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmogda. Buyuk Britaniyada esa eksponatlarga teginish mumkin bo'lgan sensorli bog'lar, muzey ko'rgazmalari hamda nogironlar aravachasida harakatlanuvchilar uchun moslashtirilgan tabiiy bog'lar faol rivojlanmogda. Germaniya va Avstriyada mehmonxona-restoran sohasi uchun inklyuziv gidlar va menejerlarni tayyorlash dasturlari mavjud bo'lib, ularda imo-ishora tili, psixologiya asoslari va xavfsiz yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Innovatsion texnologiyalar inklyuziv turizmni yanada qulay, xavfsiz va shaxsiylashtirilgan xizmat turiga aylantirmogda. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, sayohat tajribasini boyitadi. Geoma'lumotlar, sun'iy intellekt va haptik interfeyslar esa sayohatlarni rejalashtirish hamda yo'nalish bo'yicha harakatlanishni osonlashtiradi.

Inklyuziv turizmdagi asosiy texnologik tendensiyalar qatoriga VR va AR asosidagi virtual sayohatlar, interaktiv qulaylik xaritalari, sun'iy intellekt yordamchilari, sensor moslashuv tizimlari, kiyiladigan qurilmalar va IoT texnologiyalari kiradi. Masalan, Wheelmap yoki AccessNow kabi ilovalar panduslar, moslashtirilgan hojatxonalar, keng eshiklar va qulay yo'nalishlar haqidagi ma'lumotlarni jamlaydi. Sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar esa sayyohlarning tibbiy ehtiyojlari, parhez cheklovlar yoki jismoniy faollik darajasini hisobga olgan holda individual marshrutlar tuzishga yordam beradi. Aqlli bilaguzuklar va sensorlar esa ko'rish qobiliyati cheklangan sayyohlar uchun taktil yoki audio aloqa orqali navigatsiyani yengillashtiradi.

Inklyuziv turizmdagi ekskursiya xizmatlari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay, xavfsiz va ma'rifiy sayohatlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda marshrutlar, transport, axborot materiallari va xizmat ko'rsatish jarayoni turli ehtiyoj guruhlari — ko'rish, eshitish, harakatlanish imkoniyati cheklangan hamda autizm spektridagi shaxslar ehtiyojlariga moslashtirilishi zarur. Bunday xizmatlarni tashkil etish to'siqsiz muhit, ishtirok, teng imkoniyat va xavfsizlik tamoyillariga asoslanadi.

Xizmatlarni moslashtirishning asosiy tamoyillari yo'nalishlarni jismoniy to'siqlarsiz tashkil etish, maxsus transport vositalaridan foydalanish, Brayl yozuvidagi axborot materiallari, audiogidlar va taktil maketlarni joriy etish, shuningdek, malakali yordamchilar, ko'ngillilar yoki imo-ishora tili tarjimonlari bilan hamrohlikni ta'minlashdan iborat. Eshitish qobiliyati cheklangan sayyohlar uchun ekskursiyalar imo-ishora tili tarjimonlari ishtirokida tashkil etilishi, muzeylarda esa induksion halqalar va vizual materiallardan foydalanilishi maqsadga muvofiq. Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun taktil obyektlar, ovoz effektlari, hidlar va batafsil og'zaki tavsiflar asosida ekskursiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Harakatlanish imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun esa asosiy e'tibor to'siqsiz kirish yo'laklari, moslashtirilgan hojatxonalar va qulay transportga qaratiladi. Autizm spektridagi shaxslar uchun dasturlar sensor xavfsizlik, shovqinni kamaytirish va odamlar gavjum bo'lmagan muhitni ta'minlash asosida ishlab chiqilishi lozim.

Inklyuziv ekskursiya mahsulotini ishlab chiqish bir nechta muhim bosqichlardan iborat. Avvalo, turistik obyektlarning kirish imkoniyati bo'yicha auditori o'tkaziladi. Keyin gidlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar muloqot odobi, vaziyatga mos yordam ko'rsatish, turli ehtiyoj guruhlari bilan ishlash xususiyatlari bo'yicha o'qitiladi. Shundan so'ng marshrut xaritasi ishlab chiqilib, dam olish nuqtalari, qulay ovqatlanish joylari va moslashtirilgan hojatxonalar hisobga olinadi. Bron qilish jarayonida esa guruh ishtirokchilarining yoshi, jismoniy holati, individual ehtiyojlari va xohish-istaklari inobatga olinishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ekskursiya xizmatlarini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Mavjud masalalar asosan infratuzilma, axborot texnologiyalari, transport, maxsus ekskursiya dasturlari hamda malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Mazkur yo'nalishda infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlarni raqamlashtirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda milliy qulaylik standartlarini joriy etish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakat madaniy merosidan barcha fuqarolarning teng foydalanishini ta'minlab, O'zbekiston turizm sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Inklyuziv turizm barcha toifadagi aholining turistik xizmatlardan teng foydalanishini nazarda tutadi. Bunda



transport, joylashtirish vositalari, ekskursiya obyektlari va axborot tizimlari nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, to'siqsiz muhit yaratish nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega, balki turizm bozorining kengayishiga ham xizmat qiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turistik mahsulotlarni tashkil etishda marshrutlarni moslashtirish, maxsus transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, qulay joylashtirish vositalarini yaratish hamda malakali gid va hamrohlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turistik obyektlar, transport infratuzilmasi va umumiy foydalanish joylarida universal dizayn tamoyillarini keng joriy etish zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: universal dizayn tamoyillarini joriy etish, "Qulay turistik obyekt" milliy standartini ishlab chiqish, QR-kod va audiogid tizimlarini kengaytirish, VR va AR texnologiyalarini ekskursiyalarda qo'llash, inklyuziv ekskursiya gidlarini sertifikatlash, maxsus turistik marshrutlar yaratish, turoperatorlar uchun davlat rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda inklyuziv turizm bo'yicha yagona raqamli platforma yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buhalis D. Accessible Tourism: Concepts and Issues / D. Buhalis, S. Darcy. – Bristol: Channel View Publications, 2011. – 336 p.
2. Darcy S. A whole-of-life approach to tourism: The case for accessible tourism experiences / S. Darcy, T. Dickson // Journal of Hospitality and Tourism Management. – 2009. – Vol. 16, № 1. – P. 32–44.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Nogironligi bo'lgan shaxslar soni bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.
4. Packer T.L. Accessible tourism: A discussion of the core concepts / T.L. Packer [et al.] // Journal of Tourism and Cultural Change. – 2008. – Vol. 6, № 1. – P. 1–12.
5. Rains S. Digital accessibility in tourism: Emerging technologies and practices // Technology in Society. – 2021. – Vol. 65. – Article 101589.
6. World Health Organization. Disability and Health: Key Facts. – Geneva: WHO, 2023.
7. World Tourism Organization. Tourism and Disability: A Toolkit for Action. – Madrid: UNWTO, 2022.
8. Yoshida K. Universal design in tourism: Japanese perspectives / K. Yoshida, T. Buchanan // Asia Pacific Journal of Tourism Research. – 2020. – Vol. 25, № 8. – P. 891–903.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>